

Date: 3rd November-2025

O'ZBEK ONOMASTIK LUG'ATLARINING TURLARI VA TASNIFI

Xudoyberdiyeva Muhayyo

Turon universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek onomastik birliklari jamlangan va izohlangan onomastik lug'at turlari, ularning tasniflanishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: onomastik lug'atlar, izohli, etimologik, ko'rsatkich.

Leksikografiya tilshunoslikning lug'at va uning turlari, u bilan bog'liq masalalarni o'rganuvchi sohasidir. Lug'atlar dastlab ensiklopedik va filologik turga bo'linsa-da, yaratilgan maqsadiga ko'ra uning turlari juda ko'p. Lug'atlarning bir turi onomastik lug'atlar deb nomlanadi, chunki bunday lug'atlarda toponim, gidronim, antroponim, oronim, ornitonim, oykonim, etnonim, poetonim va boshqa onomastik birliklar alifbo tartibida keltirilib, ularning ma'nosi izohlanadi, orfografik normasi qayd etiladi.

Zamaxshariy lug'atshunos sifatida dastlab arab leksikografiyasining mavzuviy prinsipi (so'zlarni lug'atda mavzuviy guruhlar bo'yicha joylashtirish) asosida "Al-jibol va-l-amkina va-l-miyoh" (tog', manzil va suvlar) nomli toponimik asarini yaratadi. Bu asarda arab tili leksikasiga oid geografik nomlar mavzuviy guruhlariga ajratib izohlangan. Mavzuviy guruh ichida so'zlar alifbo prinsipi asosida joylashtirilgan³. Bu lug'atdan ma'lum bo'ladiki, onomastik lug'atlar har qaysi davrda ham muhim hisoblangan.

O'zbek tilida nashr etilgan onomastik lug'atlarga e'tibor berilsa, bu lug'atlarda onomastik birliklarning imlo, izohli, ko'rsatkich, o'quv va etimologik lug'atlari yaratilganiga guvoh bo'lish mumkin. Jumladan, E.Begmatov "Kishi nomlari imlosi" (1970), "O'zbek ismlari imlosi" (1972), T.Nafasovning "O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati" (1988), R.Y.Xudoyberganov va boshqalar "O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati", B.O'rinboyev "Samarqand viloyat toponimlarining izohi" (1997), D.Xudoyberganova, D.Andaniyozova "O'zbek tili poetonimlarining izohli lug'ati" (2016), D.Yo'ldosheva "O'zbek tilida ornitonimlarning izohli lug'ati", N.Mo'minova "Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" asaridagi antroponimlarning izohli lug'ati" (2021), R.Saydullayeva "Nizomiddin Shomiyning Zafarnoma" asaridagi onomastik birliklarning izohli lug'ati" (2022), Z.Do'simov va X.Egamovlar hammuallifligida yaratilgan "Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati" (1977), F.Rajabov "Bobur asarlari poetonimlarining qisqacha izohli lug'ati" (2022), D.Abatov "Qashqadaryo xalq dostonlari onomastik birliklarining qisqacha izohli lug'ati" (2023), M.Saparniyazova, N.Ahmedova "Hududiy nomlar ko'rsatkichi lug'ati (Toshkent shahar Chilonzor va Shayxontohur tumanlari)" (2022), D.Xudoyberganova "Tashkilot, korxona va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug'ati" (2021), Nafasov T., Nafasova V. O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati (2007), T.J.Enazarov va boshqalar "O'zbekiston joy nomlarining etimologik lug'ati" (2019) va boshqalar.

³ Normamatov S. Leksikografiya asoslari. –Toshkent, 2021. – B. 33.



Date: 3rd November-2025

Onomastik lugʻatlarning yana bir koʻrinishlari borki, ularning nomlanishida lugʻat soʻzi aks etmagan. Jumladan, Y.Menajiyev, X.Azamatov, D. Abdurahmonov, E.Begmatov “Ismingizning maʼnosi nima?” (1968), E.Begmatov “Oʻzbek ismlari” (1991), “Ism chiroyi” (1994), “Oʻzbek ismlari maʼnosi” (2010), B.Oʻrinboyevning “Jizzax viloyati toponimlari” (1992), Q.Hakimovning “Jizzax viloyati toponimlari” (2014), M.Mirakmalov va M.Avezovlarning “Vobkent tumani toponimlari” (2017), “Buxoro viloyati oronimlari va gidronimlari” (2020), S. Qorayevning “Oʻzbekiston viloyatlari toponimlari” (2005), B.Oʻrinboyev, O.Xoliqov Maktab toponimik lugʻati (2004), S.Qorayev “Geografik nomlar maʼnosi” (1978), B.Oʻrinboyev “Jizzax toponimlarining taʼbiri” (2007), Z.Ziyotov “Turon qavmlari” (2008), B.Oʻrinboyev “Asrlardek barhayot nomlar” (2003), T.Nafasov Qashqadaryo qishloqnomasi (2009) va boshqalar.

Oʻzbek tilshunosligida onomastik lugʻatlarning quyidagi turlari tuzilgan:

I. Onomastik izohli lugʻat. Bu tur lugʻatning ikki xili tuzilgan: 1) *toponimik izohli lugʻat*; 2) *antroponimik izohli lugʻat*; 3) *poetonimlar izohli lugʻati*; 4) *onomastik birliklar izohli lugʻati*: a) *matndagi onomastik birliklar izohli lugʻati* (tarixiy asarlardagi onomastik birliklar izohli lugʻati, badiiy asardagi onomastik birliklar izohli lugʻati.); b) *onomastik terminlar izohli lugʻati*.

II. Onomastik imlo lugʻati. Imlo lugʻatlarning quyidagi turlari yaratilgan. a) *toponimik (geografik) imlo lugʻat* (H.Hasanov, S.Qorayev). b) *antroponimik imlo lugʻat* (E.Begmatov) va boshqalar.

III. Onomastik etimologik lugʻat. Bunda onomastik birliklarning etimologiyasi keltiriladi. “Oʻzbekiston joy nomlarining etimologik lugʻati” (T.J.Enazarov va boshqalar, 2019).

IV. Onomastik koʻrsatkich lugʻati. “Hududiy nomlar koʻrsatkichi lugʻati (Toshkent shahar Chilonzor va Shayxontohur tumanlari)” (M.Saparniyazova, N.Ahmedova, 2022).

V. Onomastik izohli-tavsiyaviy lugʻati. “Tashkilot, korxona va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lugʻati” (D.Xudoyberganova, 2021).

Umuman olganda, oʻzbek tilshunosligida onomatik lugʻatlarning koʻp turlari yaratilgan. Jumladan, “birgina toponimik lugʻatlarning oʻndan ortiq turi”⁴ va antroponimik lugʻatlarning ham juda koʻp turlari yaratilgan.

Shunday qilib, oʻzbek onomastik leksikografiyasida shu kunga qadar antroponimik, toponimik, etnonimik, ortonimik, poetonimik va soha terminlarining lugʻatlari nashr etilgan boʻlsa-da, ammo onomastik birliklarning koʻlamdorligi hamda ayrim lingvistik meʼyorlarga koʻra onomastik morfem lugʻat, onomastik yasalish lugʻati, oʻzlashma onomastik birliklar lugʻati va boshqalarni yaratish, nashr etish oʻzbek lugʻatshunosligining dolzarb muammolari qatoriga kiradi.

⁴ Yoʻldoshev B. Oʻzbek onomastik leksikografiyasi va toponimik lugʻat turlari haqida. Oʻzbek tilshunosligi masalalari. – Qarshi, 2012. – B. 38.

Date: 3rd November-2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Normamatov S. Leksikografiya asoslari. –Toshkent, 2020. – 124 b.
2. Yo‘ldoshev B. O‘zbek onomastik leksikografiyasi va toponimik lug‘at turlari haqida. O‘zbek tilshunosligi masalalari. – Qarshi, 2012. – B. 38-43.

